

Muhammad Xorazmshoh



Muhammad Xorazmshoh

Muhammad II Alouddin, Alouddin Muhammad

(taxm. 1182-1220 yil dekabr)

(1200-1220)

Anushteginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshohlar davlati hukmdori. To'liq ismi *Qutbiddin Muhammad ibn Takash ibn Elarslon ibn Anushtegin*. Otasi – **Takash** xorazmshoh, onasi **Turkon xotun** qipchoq xoni Jonkishining qizi. Muhammad 1193 yil dekabrda otasi tomonidan Nishapur shahriga voliy (hokim) qilib tayinlangan.

Muhammad davrida sultanat ham hududiy, ham kuch-qudrat jihatidan o'zining yuksak cho'qqisiga yetgan. Muhammad davrida Xorazmshohlar davlati shimolda Orol, g'arbda Kaspiy dengizigacha, janubda Iraq va G'aznagacha, sharqda Yettisuvgacha kengaygan. U mamlakatni kengaytirish siyosatini olib boradi. Dastavval u Hirot va uning atroflari hamda Xurosonning Xorazm davlati tasarrufiga kiritilmagan viloyatlarini zabit qilishga kirishadi. Ayniqsa, u qoraxoniylarga zarba berib, Mavarounnahrni ular qo'lidan tortib olishga harakat qiladi.

1218 yil **Chingizzon** Muhammad huzuriga shaxsiy vakili **Uhuna** boshliq 500 tuyadan ortiq elchi va savdogarlar karvoni O'trorga kirib keldi. O'tror hokimi **Inolchiq** karvonni ushilab, elchilarni qatl ettirgan. Muhammadning davlatini yaxshi o'rgangan Chingizzon Xorazmga qaram xalqlarning noroziligidan, lashkarboshilar orasidagi nizolardan, Muhammadning onasi Turkon xotun qarindoshlari orasidan chiqqan amaldorlardan foydalanishi hamda Muhammadning mo'g'ullar hujumi xabarini amalga oshirgan noto'g'ri tadbirlari (har bir shahar o'z-o'zini himoya qilishi; raiyatdan 1 yil uchun 3 barobar xiroj yig'ishi) sababli muvaffaqiyatga erishdi.

Chingizzon Xorazmga yurish qilib O'tror (1219), Buxoro va Samarcand (1220)ni bosib oldi.

Muhammad Movarounnahrni tashlab Xuroson tarafga qochdi. Chingizxonning 20 minglik qo'shinining tinimsiz ta'qib qilishi Muhammadga o'z kuchlarini qayta to'plab, nafasini rostlashga imkon bermadi.

Kaspiy dengizingin Ashur oroliga borib qolgan Muhammad qattiq betob bo'lib qoldi va umrining oxirida oldingi qarorini o'zgartirib, o'g'li **Qutbiddin O'zloqshohning** o'rniga **Jaloliddin Manguberdini** valiahd deb e'lon qildi. O'sha orolda vafot etdi va shu yerda dafn etildi. Keyinchalik Jaloliddinning farmoyishiga ko'ra, Muhammadning jasadi Isfaxondagi xorazmshohlarning xotirasiga qurilgan maqbaraga ko'mish uchun Ardahn qal'asiga keltirilgan.

2023-10-29 23:36:55